



## XUSUSIY TADBIRKORLIKNI ISTIQBOLDA RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

**Xomidov Xojiakbar Adhamjonovich**

Farg'ona davlat universiteti magistranti

### ARTICLE INFO

Received: 29<sup>th</sup> December 2023

Accepted: 04<sup>th</sup> January 2024

Online: 05<sup>th</sup> January 2024

### KEY WORDS

*Xususiy tadbirkorlik, rivojlanish, tendensiyalar, texnologik yutuqlar, global muammolar, innovatsiyalar, barqarorlik, ko'p tarmoqli yondashuv.*

### ABSTRACT

*Ushbu ilmiy maqolada xususiy tadbirkorlikni kelgusida rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari o'rganilib, yaqin yillarda biznes landshaftini shakllantirishga tayyor bo'lgan asosiy strategiya va yo'nalishlarga e'tibor qaratilgan. Hozirgi iqtisodiy tendensiyalar, texnologik taraqqiyot va global muammolarni tahlil qilish orqali tadqiqot xususiy tadbirkorlik traektoriyasiga ta'sir etuvchi muhim omillarni aniqlashga qaratilgan. Topilmalar kelajakda barqaror va innovatsion xususiy korxonalarini rivojlantirishga intilayotgan siyosatchilar, tadbirkorlar va tadqiqotchilar uchun qimmatli tushunchalarga yordam beradi.*

Bugungi yangilanayotgan iqtisodiy-ijtimoiy jamiyatda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi bozor iqtisodiyoti shakllanishi va taraqqiy etishiga, shuningdek, raqobatbardosh iqtisodiyotning samaradorlik darajasi va bozor islohotlarining muvaffaqiyatlilik darajasiga ta'sir etuvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonining tub mohiyati ham mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish, tadbirkorlikni yanada rivojlantirishni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yilning 14 may kuni "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonni imzoladi. Unda tadbirkorlarning, shu jumladan, chet ellik investorlarning murojaatlari bilan ishlashni tashkil etish sifati va tezkorligini oshirish, ular bilan ochiq va to'g'ridan-to'g'ri muloqotni ta'minlash, ularning qonuniy talablarini amaliy va samarali ro'yobga chiqarish va muammoli masalalarni hal etish, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga real hissani ko'paytirish, aholining ish bilan bandligini oshirish va uning moddiy farovonligini o'stirish maqsadida bir qator vazifalar belgilandi.

Tadbirkorlik salohiyatini rivojlantirish uchun jamiyatda tadbirkorlik bilan shug'ullanishga tayyor insonlar hamda ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlovchi institutlar bo'lishi kerak. Iqtisodiyotning umumiy taraqqiyotini ta'minlashda, tovarlar va xizmatlar etishmovchiligini bartaraf etishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik katta o'rin tutadi.



Mehnat resurslari tez o'sayotgan va ishlab chiqarish joylashuvidagi o'ziga xoslik sharoitlarida O'zbekistonda kichik korxonalar tizimini vujudga keltirish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- ✓ erkin mehnat resurslarining, yangi xo'jalik munosabatlarining joriy etilishi, yangi mulkchilik shakllarining paydo bo'lishi natijasida ishlab chiqarishda bo'shatiladigan shaxslarning ijtimoiy ishlab chiqarishga ko'proq jalb etish, mulkchilikning yangi shakllari paydo bo'lishi;
- ✓ aholining, birinchi navbatda, yoshlarning, moddiy, ma'naviy va kasb darajasini ko'tarish;
- ✓ aholining sust harakatchanligini hisobga olgan holda sanoat ishlab chiqarishini aholi yashaydigan joylarga yaqinlashtirish hamda aholining xalq iste'moli mollariga bo'lgan ehtiyojlarini to'laroq qondirish;
- ✓ milliy va badiiy hunarmandchilikni tiklash, shuningdek, kichik va o'rta shaharlarni, qishloq aholi punktlarini rivojlantirishga yordam ko'rsatish, umuman, har bir mintaqa uchun g'oyat muhim bo'lgan iqtisodiyot samaradorligini oshirish.

Tadbirkorlik faoliyatining kelajagi tadbirkorlik muhiti bilan belgilanadi, u esa jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni aks ettiradi. Ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga iqtisodiy mustaqillik, tadbirkorlar sinfi, iqtisodiy aloqalarda bozorning ustuvorligi, tadbirkorlik kapitalini mujassamlantirish sharoitining mavjudligi va kerak bo'lgan resurslarni ishlatish kiradi.

Zamonaviy texnika vositalari va biotexnologiyalarning rivojlanishi asosida qishloq xo'jaligi va sanoat o'rtasidagi munosabatlar murakkablashib bormoqda. Yaponiya hukumati o'tgan asrning 60 yillar yakuniga kelib, mamlakat hududini o'zlashtirishning uchinchi rejasi haqida qaror qilgan edi. Bu qarorda qishloq xo'jaligini sanoat bilan integratsiyalash zaruriyati ko'zda tutilgan. Yaponiyaning hamma joylarida qishloqni industrilashtirish orqali mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish rejalashtirilgan. 1978 yil "Qishloq joylarida sanoat korxonalarini rivojlantirish haqida"gi qonun e'lon qilindi. Unda qishloq sanoatini tuzish tadbirlari tizimi ko'zda tutilgan edi. Shu qonun asosida "Har bir qishloqda bitta tovar" harakati boshlandi. Uning mazmuni shuki, har qaysi qishloqda raqobatbardosh sanoat mahsuloti ishlab chiqaradigan bitta korxonaga bo'lishi shart. Qishloq sanoatining rivojlanishi munosabati bilan "Bitta qishloqda yuzta tovar" shiorini ilgari surgan murakkab vazifa kun tartibiga qo'yildi.

AQSH iqtisodidagi kichik sektorning ulushi nafaqat yalpi ichki mahsulotda, balki unda ishlovchilar sonida ham katta. Kichik biznesni rivojlantirishning 900 dan ortiq markazlari kichik va o'rta firmalarga konsultatsiya beradilar, boshlovchi tadbirkorlarga biznes-rejalar tayyorlashda, davlat tashkilotlaridan moliyaviy yordam olishda ko'maklashadilar. 1,5 mingdan ko'proq kompaniyalarni birlashtirgan okrug kengashlari seminarlar o'tkazadilar, tadbirkorlarni o'qitadilar, kichik firmalar faoliyatini tashkil qilish bo'yicha ma'lumotnoma-qo'llanmalar tuzadilar.

Xorijiy mamlakatlar tajribalarida, birinchidan, rivojlanayotgan mamlakatlarda muhim iqtisodiy omillardan biri, bu kichik biznes rivoji bo'lib, bu boradagi har qanday umummanfaatini ko'zlagan samarali faoliyatlar davlat ahamiyatiga ega bo'ladi va qo'llab-quvvatlanadi. Zero, kichik biznes faoliyati o'sib, yanada samarali biznesga aylanishi, mamlakat ichki bozorini tovar hamda xizmatlar turlari bilan to'ldirishi, shu tariqa eksport salohiyati rivojiga hissa qo'shilishi, aholining ish bilan bandligi muammosi echilishiga ko'maklashuvi,



aholinig real daromadi o'sishiga, pirovard natijada aholining turmush darajasini yuksalishiga olib keladi.

Ikkinchidan, iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida, jahon bozorida raqobat kuchayayotgan bir paytda, yirik korxonalaridan ko'ra aynan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarida raqobatga dosh berish, manevrlar qilish, ishlab chiqarish yo'nalishini o'zgartirish kabi iqtisodiy chora tadbirlar ko'rish oson kechadi.

Ko'rinib turibdiki, xorijiy mamlakatlarda kichik biznesni har tomonlama qo'llab-quvvatlashning rivojlangan tizimi mavjud bo'lib, bu hol raqobatning kuchayishi sharoitida ijtimoiy-itisodiy muhitning barqaror taraqqiy etishini ta'minlaydi. Bu esa, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmining to'laqonli rivojlanganligidan dalolat beradi.

## References:

1. Xodiev B.YU., Qosimova M.S., Samadov A.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. T.: TDIU, 2010.
2. Boltaboev M.R., Qosimova M.S., Ergashxodjaeva SH.J., G'oyibnazarov B.K., Samadov A.N., Xodjaev R. Kichik biznes va tadbirkorlik: O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisodiyot", 2019. – 275 bet.
3. Samadov A.N., Ostanqulova G.N. Kichik biznes va tadbirkorlik. T.: Moliya-iqtisod, 2008.
4. Qosimova M.S., Yusupov M.A., Ergashxodjaeva Sh.J. Marketing. –T.: TDIU -2019.
5. Ergasheva D. The role of primary education in the upbringing of the mature generation //Science and Innovation. – 2022. – T. 1. – №. 4. – С. 139-141.
6. Предпринимательство: учебник / под.ред. М.Г.Лапусты. – 4-е издательство, доп. – М.: ИНФРА-М, 2008. - 667 с.
7. Анискин Ю.П. Организация и управление малым бизнесом: Учеб.пособ. – М.: Финансы и статистика, 2008. – 160с
8. Sobirjonovich S. I. EASTERN THINKERS'VIEWS ON EVERYWHERE EDUCATION OF CHILDREN //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 309-314.